Ko‘rib o‘tganimiz birgina baytda Navoiy qanchalar badiiy vositadan foydalangan. Bu shoirning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Alisher Navoiy yil fasllariga alohida e’tibor beradi. U “Farhod va Shirin” dagi fasllarga bag‘ishlangan maxsus bob (XVII) va boblar tarkibidagi yaxlit parchalarda har bir faslning o‘ziga xos xususiyatlarini, sifat fazilatlarini umumlashtirar ekan, ayni choqda ularda ijtimoiy masalalarni va bu masalalarga munosabatlarini mujassamlashtiradi. Ana shunday lavhalardan biri – qish peyzajiga, undagi mushtarak san’atlar va yozuvchining qalb dramatizmiga e’tibor beraylik:

Qizil o‘t sovug‘ andoqkim qizil gul,
Aning dudi bo‘lub gul uzra sunbul…
Qo‘lni qo‘ltug‘lar ichra mutaxif ham,
Qulog‘lardan o‘tub ikki kotif ham[2 :28].

Bu qishning shunchaki tasviri emas. Unda qish faslining ko‘rku manzaralari, tinimsiz yoqqan qordan tabiatning, yeru-ko‘kning oppoq tusga kirishi, qahraton qish izg‘irinidan hamma narsaning “taxtatosh”ga aylanishi, xullas, tabiatning jonli manzarasi nozik va nafis nuqtalargacha o‘zining badiiy ifodasini topgan. Parchada mohir musavvir kabi qish manzarasini chizgan Navoiy, uni qarshilantirish usulining bir necha xil ko‘rinishlari bilan badiiy jihatdan qayta ziynatlaydi.

Misralarda quyidagi tazodlarni ko‘rish mumkin:

1. a) “qizil o‘t” – “qizil gul”; b) “o‘t” – “sovuq”.
2. a) “o‘t” – “dud”; b) “o‘t” – “sovuq”.
   d) “gul” (“yuz”); “sunbul” (soch).
3. a) “harir” (yumshoq) – “taxta” (qattiq)
   b) “harir” (ko‘chma ma’noda suvning ipakdek tovlanib, mavjlanib oqishi); “taxta tosh” (muz).

Narsa va predmetlar, jism va elementlar o‘rtasidagi ana shu qarama-qarshilik qish peyzajining yanada go‘zalroq namoyon bo‘lishi uchun katta rol o‘ynagan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, shoir qish manzarasini chizish uchun faqat qahraton sovuqni ifoda etuvchi ifodalar bilan cheklanib qolmaydi. Diqqat qilinsa, asosiy ma’no “qizil o‘t” va “qizil gul” birikmalariga yuklatilgan. Vaholanki, bu so‘z birikmalari bir jihatdangina o‘xshash. Ya’ni ikkalasi ham bir xil ma’noni qizillik ma’nosini beradi. Lekin mohiyat jihatidan ular har xil. Biri – ishq, ikkinchisi- sovuq. Biroq inson ehtiyoji uchun har ikkalasi ham zarur. Bu jihatdan ular umumiylik xususiyatiga ega. Chunki odam hayotida issiqqa ham, sovuqqa ham ehtiyoj sezadi. Shunday qilib, biz Y. Is’hoqov ta’kidlaganidek: “Tazod san’ati taraqqiyotining oily darajasini Alisher Navoiy ijodida ko‘ramiz. Bu usul buyuk shoir she’riyatida keng ko‘lamda qo‘llangan bo‘lib, xilma-xil mazmun va rang-barang stilistik ko‘rinishlarga ega”dir [2:23].

She’rlardagi quyuq fikr va mantiqiy asos, fikriy izchillik va badiiy nozikliklar san’atkor shoirning tengsiz mahoratidan dalolat beradi. Demak, tazod san’ati doston badiiyatida alohida o‘rin tutadi va u ko‘pincha boshqa san’atlar bilan birga bir maqsadga xizmat qildirilgan holda uchraydi. Ko‘rinib turibdiki, tazod san’atini ro‘yobga chiqarishda shoir ko‘proq tabiatning o‘zidagi qarama-qarshi narsa va hodisalarga tayanadi. Shu tariqa tabiat tasvirini ro‘yobga chiqarishda bu san’at muhim badiiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiat tasviri orqali shoir tabiat va jamiyatdagi, koinotdagi ko‘rinish va manzaralarni, narsa va hodisalarni,insonning tashqi qiyofasi va ichki dunyosidagi osonlikcha ilg‘ab bo‘lmaydigan mo‘jaz detallarni nozik tuyg‘ularni rangin bo‘yoqlarda, go‘zal shakllarda mohirona aks ettiradiki, bu bilan, bir tomondan, she’rdan kuzatilgan mazmun va muddao kuchaytirilsa, ikkinchi tomondan, misralar yanada ravonlik va musiqiylik kasb etadi. Bularning barchasi birgalikda shoirning yuksak maqsadi – insonni tabiat bag‘ridagi eng mukarram zot ekanligini kashf etishga xizmat qiladi. “Farhod va Shirin”dagi tasviri lavhalarida qo‘llangan ma’naviy san’atlardan yana biri talmehdir. Navoiy qahramonlar, ayniqsa, Shirin go‘zalligini tasvirlashda tabiat bilan bog‘liq talmehlarga ko‘p murojaat etadi. Mana Shirin ta’rifiga oid talmehli ta’riflarda bayon qiladi. Bizga ma’lumki, Samandar bu o‘tda yonmaydigan afsonaviy qush. Olov ichida u yanada chiroyli tusga kiradi, o‘zidan nur taradi. Shirinning ham go‘zalligi bu yorug‘ olamni yanada nurga to‘ldiradi. Bu o‘rinda ham Navoiy Shirin obrazini tasvirlashni tabiat bilan bog‘liq tarzda olib boradi. Guvohi bo‘lganimizdek, Navoiy har bir voqea hodisani shunchaki berib o‘tmasdan hayotiy o‘xshatishlar orqali dalillaydi. Bu uning o‘ziga xos uslubi sanaladi.

References

1. Abdug‘afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. –184 bet.
2. Alisher Navoiy “Xamsa: Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin”. T: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. j-6, 808 bet.
3. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”. 14-jild. “Mahbub ul-qulub”. Toshkent 1998. – 314 bet.

4. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” (I.Maxsumov tadbili), Yangi asr avlodi, Toshkent 2019. – 316 bet.
5. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. VIII том. Фарҳод ва Ширин. – Тошкент: “Фан”, 1991, 542 бет.
6. G‘aniyeva S. “Mahbub ul-qulub” 5 tomlik. 2-tom. Toshkent: “Fan”, 1977. – 143 bet.

Conservation of Museum Objects and the Preservation of Historical Memory: A Key Factor in Societal Development (The Case of Uzbekistan, 1991–2025)

Buriev Sherzod Khuldashevich (Independent Doctoral Researcher (PhD Candidate), Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage)[1]
sherzodburiyev8354@ gmail.com | ORCID: 0009-0004-4280-1970
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article examines the formation and development of the system of conservation, restoration, and preservation of museum objects in Uzbekistan during the period from 1991 to 2025. Particular attention is paid to the scientific and theoretical foundations of safeguarding tangible cultural heritage, the implementation of modern technologies, and the role of conservation and restoration in preserving the historical memory of society. The study highlights the interconnection of this field with social sciences, education, and research, as well as its importance in strengthening national identity and educating younger generations. In addition, the paper analyzes existing challenges in the sector, including the need for qualified specialists, improvement of material and technical resources, and the adoption of innovative approaches, while outlining key strategic directions for future development.
Keywords: museum objects, conservation, restoration, cultural heritage, historical memory, museum collections, preservation technologies, science integration, national identity, social development, innovative approaches, museums of Uzbekistan

Muzey ashyolarini konservatsiya qilish orqali tarixiy xotirani saqlash - jamiyat taraqqiyotining muhim omili (O‘zbekiston tajribasi, 1991-2025 yillar)

Bo‘riyev Sherzod Xuldashevich (Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tekshirish instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD))[1]
sherzodburiyev8354@ gmail.com | ORCID: 0009-0004-4280-1970
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya.
Ushbu maqolada O‘zbekistonda 1991-2025 yillar davomida muzey ashyolarini konservatsiya qilish, ta’mirlash va saqlash tizimining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Muzey fondlaridagi moddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash jarayonining ilmiy-nazariy asoslari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, konservatsiya va restavratsiya ishlarining jamiyatning tarixiy xotirasini saqlashdagi o‘rni yoritiladi. Maqolada mazkur sohaning ijtimoiy fanlar, ta’lim va ilm-fan bilan integratsiyasi, yosh avlodni milliy va madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Shu bilan birga, muzey faoliyatini rivojlantirishda mavjud muammolar, xususan, kadrlar tayyorlash, moddiy-texnik baza va innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari tahlil qilinib, istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab beriladi.
Kalit so‘zlar. muzey eksponatlari, konservatsiya, restavratsiya, madaniy meros, tarixiy xotira, muzey fondlari, saqlash texnologiyalari, ilm-fan integratsiyasi, milliy o‘zlik (identitet), ijtimoiy rivojlanish, innovatsion yondashuvlar, O‘zbekiston muzeylari.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot makonining kengayishi hamda madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi sharoitida har bir xalqning o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida tarixiy xotira va madaniy merosni asrab-avaylash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tarixiy xotira jamiyatning o‘z o‘tmishi, qadriyatlari va madaniy tajribasini anglashiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy fenomen bo‘lib, u moddiy va nomoddiy meros orqali avloddan-avlodga uzatiladi. Shu nuqtai nazardan, muzeylar tarixiy xotirani saqlash, ilmiy tadqiq etish va keng jamoatchilikka yetkazishda asosiy ijtimoiy-madaniy institutlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi .

Muzey fondlarida saqlanayotgan ashyolar - bu jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarini aks ettiruvchi noyob manbalar bo‘lib, ularni ilmiy asosda konservatsiya qilish, restavratsiya qilish va saqlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mazkur jarayonlar nafaqat moddiy obyektlarning fizik yaxlitligini ta’minlash, balki ularning tarixiy, badiiy va ilmiy ahamiyatini saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bois muzey ashyolarini konservatsiya qilish sohasi bugungi kunda tarix, arxeologiya, kimyo, fizika, san’atshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi asosida rivojlanayotgan kompleks ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda .

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy madaniy merosni tiklash va asrash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada muzeylar faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, fondlarni ilmiy asosda saqlash va boyitish, shuningdek, konservatsiya va restavratsiya

ishlarini takomillashtirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada muzeylar nafaqat eksponatlarni saqlovchi maskan, balki ilmiy-tadqiqot, ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni amalga oshiruvchi muhim markazlarga aylandi.

Shu bilan birga, zamonaviy davrda muzey ashyolarini saqlash masalasi yangi yondashuv va texnologiyalarni talab etmoqda. Iqlim nazorati tizimlari, raqamlashtirish jarayonlari, innovatsion restavratsiya usullarining joriy etilishi muzey fondlarini uzoq muddat saqlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, sohada kadrlar tayyorlash, zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash, hududiy muzeylar faoliyatini takomillashtirish kabi qator muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asosda hal etish muhim ahamiyat kasb etadi .

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda 1991-2025 yillar davomida muzey ashyolarini konservatsiya qilish, ta’mirlash va saqlash tizimining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, ushbu jarayonning jamiyatning tarixiy xotirasini saqlashdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Tadqiqot davomida mazkur sohaning ijtimoiy fanlar, ta’lim va ilm-fan bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, uning jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism: Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekistonda 1991-2025 yillar davomida muzey ashyolarini konservatsiya qilish, restavratsiya qilish va saqlash tizimining shakllanishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish, ushbu jarayonlarning jamiyatning tarixiy xotirasini saqlash va uzluksiz davom ettirishdagi o‘rnini ilmiy asosda ochib berishdan iborat.

Shu bilan birga, tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida muzey fondlarida saqlanayotgan moddiy madaniy meros obyektlarini asrashning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, konservatsiya va restavratsiya jarayonlarining zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashuvini ko‘rsatish ham ko‘zda tutiladi. Maqolada ushbu sohaning tarix, arxeologiya, san’atshunoslik, tabiiy fanlar hamda axborot texnologiyalari bilan o‘zaro integratsiyasi ochib berilib, uning ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatidagi ahamiyati asoslanadi.

Tadqiqotning yana bir muhim maqsadi - mustaqillik yillarida O‘zbekistonda muzey faoliyatini rivojlantirish, xususan, konservatsiya va saqlash tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan davlat siyosati, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlarni tahlil qilish orqali ushbu jarayonning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga qo‘shgan hissasini aniqlashdan iborat. Bu jarayonda muzeylarning ilmiy-tadqiqot, ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy funksiyalarini kengaytirishdagi roli ham alohida e’tiborga olinadi .

Bundan tashqari, maqolada muzey ashyolarini saqlash va restavratsiya qilish sohasida mavjud muammolar, jumladan, malakali kadrlar tayyorlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari tanqidiy tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etishning ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqiladi. Shu asosda kelgusida muzey faoliyatini yanada takomillashtirish, milliy madaniy merosni samarali boshqarish va uni keng jamoatchilikka yetkazish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar berish ham tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi .

Umuman olganda, mazkur tadqiqot muzey ashyolarini konservatsiya qilish va saqlash jarayonlarini jamiyat taraqqiyotining muhim strategik omili sifatida baholash, uning tarixiy xotirani shakllantirish va saqlashdagi o‘rnini chuqur ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Muhokama. Mazkur ilmiy maqolada belgilangan maqsadga erishish uchun bir qator o‘zaro bog‘liq ilmiy vazifalarni hal etish ko‘zda tutiladi. Avvalo, muzey ashyolarini konservatsiya qilish, restavratsiya qilish va saqlash jarayonlarining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, ushbu tushunchalarning ilmiy mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ularning tarixiy xotirani shakllantirishdagi o‘rnini asoslash muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu orqali mazkur sohaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan izohlash maqsad qilinadi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida O‘zbekistonda 1991-2025 yillar davomida muzey ashyolarini konservatsiya qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiylik va izchillik tamoyillari asosida tahlil qilish vazifasi qo‘yiladi. Bu jarayonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan davlat siyosati, qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda amaliy chora-tadbirlarning mazmuni va samaradorligini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning navbatdagi vazifalaridan biri - muzey fondlarida saqlanayotgan moddiy madaniy meros obyektlarini asrash jarayonida qo‘llanilayotgan an’anaviy va zamonaviy konservatsiya hamda restavratsiya usullarini tahlil qilish, ularning ilmiy asoslanganligi va amaliy samaradorligini baholashdan iborat. Shu bilan birga, raqamlashtirish, iqlim nazorati, innovatsion texnologiyalar kabi zamonaviy yondashuvlarning joriy etilish darajasini o‘rganish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, maqolada muzey ashyolarini saqlash sohasining ilm-fan, ta’lim va boshqa ijtimoiy institutlar bilan integratsiyasini tahlil qilish, xususan, malakali kadrlar tayyorlash tizimi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy tajribaning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish vazifasi ham ilgari suriladi. Bu esa sohaning barqaror rivojlanish omillarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida mavjud muammolar, jumladan, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada emasligi, zamonaviy uskunalar va texnologiyalar ta’minotidagi kamchiliklar, hududiy muzeylar faoliyatidagi tafovutlar hamda malakali mutaxassislar yetishmovchiligi tanqidiy tahlil qilinadi. Ushbu muammolarni bartaraf etishning ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqish ham muhim vazifa sifatida belgilanadi.

Yakuniy vazifa sifatida esa O‘zbekistonda muzey ashyolarini konservatsiya qilish va saqlash tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, shuningdek, madaniy merosni asrash orqali jamiyatning tarixiy xotirasini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Tahlil va natijalar. Mazkur ilmiy maqolaning yangiligi, avvalo, O‘zbekistonda 1991-2025 yillar davomida muzey ashyolarini konservatsiya qilish, restavratsiya qilish va saqlash tizimining rivojlanish jarayonlarini yaxlit, tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilinganligida namoyon bo‘ladi. Ilgari olib borilgan tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu ishda mazkur soha nafaqat tor doiradagi amaliy faoliyat sifatida, balki jamiyat taraqqiyotining muhim strategik omili hamda tarixiy xotirani shakllantiruvchi va saqlovchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida ilmiy asosda talqin etiladi.

Tadqiqotda birinchi bor muzey ashyolarini konservatsiya qilish jarayonlari ijtimoiy fanlar, tarix, madaniyatshunoslik va tabiiy fanlar integratsiyasi nuqtai nazaridan kompleks o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sir mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, konservatsiya va restavratsiya faoliyatining nafaqat moddiy merosni saqlash, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy ongni shakllantirish va jamiyatning ma’naviy rivojiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Maqolaning muhim ilmiy yangiliklaridan yana biri - mustaqillik yillarida O‘zbekistonda muzey sohasida amalga oshirilgan islohotlar, davlat siyosati va me’yoriy-huquqiy asoslarning konservatsiya tizimi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri tizimli ravishda tahlil qilinganidir. Bu orqali mazkur jarayonlarning

bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlari aniqlanib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan umumlashtiriladi.

Shu bilan birga, tadqiqotda muzey ashyolarini saqlash sohasida zamonaviy innovatsion texnologiyalar, xususan, raqamlashtirish, iqlim nazorati tizimlari va yangi restavratsiya usullarining joriy etilish darajasi ilk bor kompleks baholanadi hamda ularning samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvlar orqali an’anaviy va zamonaviy usullar uyg‘unligining afzalliklari ochib beriladi .

Tadqiqotning yana bir muhim yangiligi - sohada mavjud muammolarni tizimli ravishda aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligidir. Xususan, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, hududiy muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda xalqaro tajribani joriy etish bo‘yicha aniq ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Umuman olganda, mazkur maqola muzey ashyolarini konservatsiya qilish va saqlash jarayonlarini yangi konseptual yondashuv asosida tahlil qilishi, ularni jamiyat taraqqiyoti va tarixiy xotirani saqlash bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishi bilan ilmiy jihatdan muhim yangilik kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda 1991-2025 yillar davomida muzey ashyolarini konservatsiya qilish, restavratsiya qilish va saqlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib, jamiyatning tarixiy xotirasini saqlash va mustahkamlashda muhim ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida shakllandi. Mustaqillik yillarida mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, me’yoriy-huquqiy asoslarning yaratilishi, muzeylar moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi hamda ilmiy yondashuvlarning joriy etilishi natijasida muzey faoliyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, muzey ashyolarini konservatsiya qilish jarayoni nafaqat moddiy madaniy merosni fizik jihatdan saqlashga, balki jamiyatning tarixiy ongini shakllantirish, milliy o‘zlikni mustahkamlash va madaniy uzluksizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, konservatsiya va restavratsiya faoliyati ijtimoiy fanlar, ta’lim va ilm-fan bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mazkur sohada qator tizimli muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Xususan, ayrim muzeylarda zamonaviy konservatsiya uskunalari va texnologiyalarining yetishmasligi, malakali restavrator mutaxassislar taqchilligi, hududiy muzeylar faoliyatidagi nomutanosibliklar hamda ilmiy-tadqiqot ishlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu sohaning samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilmoqda .

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, muzey ashyolarini konservatsiya qilish va saqlash tizimini takomillashtirish maqsadida zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlarni keng joriy etish, xususan, iqlim nazorati, laboratoriya tahlillari va raqamlashtirish texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish zarur.

Ikkinchidan, soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish, oliy ta’lim muassasalarida konservatsiya va restavratsiya yo‘nalishlarini takomillashtirish hamda amaliyot bilan integratsiyasini kuchaytirish lozim.

Uchinchidan, muzeylar faoliyatini ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida rivojlantirish, konservatsiya jarayonlarini ilmiy asosda olib borish, shuningdek, xalqaro ilmiy markazlar va muzeylar bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, hududiy muzeylar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash hamda ularning faoliyatini markazlashgan tizim asosida muvofiqlashtirish zarur.

Beshinchidan, muzey ashyolarini saqlash va ularni keng jamoatchilikka yetkazishda raqamli platformalar va innovatsion kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish, bu orqali jamiyatning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, muzey ashyolarini konservatsiya qilish va saqlash tizimini izchil rivojlantirish nafaqat madaniy merosni asrash, balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, tarixiy xotirani mustahkamlash va kelajak avlodlarga boy madaniy merosni yetkazishning muhim sharti hisoblanadi .

References

1. UNESCO. Culture: Urban Future Report. - Paris, 2016.
2. ICOM. Museum Definition, Standards and Ethics. - Paris, 2017.
3. UNESCO. Operational Guidelines for the Implementation of the World Heritage Convention. - Paris, 2019.
4. European Commission. Cultural Heritage in the Digital Age Report. - Brussels, 2020.
5. ICCROM. Conservation and Sustainable Heritage Management. - Rome, 2021.
6. Jokilehto J. Conservation Principles in the 21st Century. - Oxford, 2018.
7. De Silva M. Preventive Conservation in Museums: New Approaches. - London: Routledge, 2019.
8. Caple C. Conservation Skills: Judgement, Method and Decision Making (2nd ed.). - London: Routledge, 2020.
9. UNESCO. Culture & Sustainable Development Report. - Paris, 2022.
10. Smith L. Heritage, Memory and Identity in Contemporary Society. - London: Routledge, 2021.
11. ICCROM. Digital Documentation for Heritage Conservation. - Rome, 2023.
12. UNESCO. World Heritage and Climate Change Impact Report. - Paris, 2024.
13. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Muzeylar faoliyati va madaniy merosni saqlash bo‘yicha hisobot. - Toshkent, 2022.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy merosni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. - Toshkent, 2017-2024.
15. International Council of Museums (ICOM). Museum and Sustainable Development Policy. - Paris, 2023.

Scientific and Pedagogical Foundations of Fostering Independent Thinking in Higher Education Students

Gulomova Komila Makhmatjanovna (PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor)[1]
g.komila05@gmail.com | ORCID: 0009-0005-5878-8149
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
The article examines the scientific and pedagogical foundations for the development of students' independent thinking in the higher education system. It analyzes the essence of independent thinking, the main factors influencing its formation, as well as ways to effectively organize the educational process. It also substantiates the importance of modern pedagogical approaches and educational technologies in developing students' analytical and creative thinking.
Keywords: higher education, independent thinking, creative approach, competence, educational technologies, student activity, interactive methods, independent learning

Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari

Gulomova Komila Maxmatjanovna (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent[1]
g.komila05@gmail.com | ORCID: 0009-0005-5878-8149
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya.
Maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Unda mustaqil fikrlashning mohiyati, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta'lim texnologiyalarining ahamiyati asoslab berilgan.
Kalit so'zlar. oliy ta'lim, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, kompetensiya, ta'lim texnologiyalari, talaba faolligi, interfaol metodlar, mustaqil ta'lim

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularni mustaqil qaror qabul qila oladigan, tahliliy va tanqidiy fikrlashga ega mutaxassis sifatida tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda raqamli texnologiyalarning ta'limga chuqur kirib borishi talabalardan tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, balki ularni mustaqil tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham talab etmoqda.

Mustaqil fikrlash – bu shaxsning o'z bilimiga, tajribasiga va mantiqiy tahliliga tayangan holda xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda yangicha yondashuvlarni ilgari surish qobiliyatidir. Oliy ta'lim muassasalarida ushbu sifatni rivojlantirish ta'lim jarayonining nafaqat didaktik, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini ham kuchaytiradi. Shu jihatdan, mustaqil fikrlashni shakllantirish pedagogik jarayonning markaziy komponentlaridan biri sifatida qaraladi[1].

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi turli yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lib, unda interfaol ta'lim metodlari, muammoli o'qitish texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Biroq, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun uning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zarur bo'lib qolmoqda[1]. Shuningdek, mustaqil fikrlashni shakllantirishda interfaol metodlar, muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim va raqamli resurslardan foydalanishning imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarning intellektual faolligini oshirish hamda ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qilishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligi va intellektual salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mustaqil fikrlash nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va yangi xulosalar chiqarish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli ta'lim jarayoni talabalarda faollik va tashabbuskorlikni kuchaytirishga yo'naltirilishi lozim.

Mazkur jarayonda o'qituvchining vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki talabaning fikrlash jarayonini yo'naltirish, unga muammoli vaziyatlar yaratish va mustaqil yechim topishga undashdan iboratdir. Bunday yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi jahon pedagogika fanida keng o'rganilgan bo'lib, bu borada turli mamlakat olimlari tomonidan nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

G'arb pedagogikasida J. Dyui mustaqil fikrlashni ta'lim jarayonining markaziy elementi sifatida ko'rib, "o'quvchi faol fikrlash jarayoniga jalb etilgandagina haqiqiy bilim shakllanadi" degan g'oyani ilgari suradi[2]. U muammoli vaziyatlar asosida

tashkil etilgan ta’lim talabaning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishini ta’kidlaydi.

L. S. Vygotskiy esa ijtimoiy-madaniy yondashuvga asoslanib, mustaqil fikrlash avvalo muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanishini, “yaqin rivojlanish zonasi” orqali rivojlanishini ilmiy asoslab bergan[3].

B. Blumning taksonomiyasi fikrlash jarayonini oddiy bilishdan yuqori darajadagi tahlil, sintez va baholashgacha bo‘lgan bosqichlarda izohlaydi. K. Rodjers esa shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda talabaning erkin fikrlashi va ichki motivatsiyasi muhimligini alohida ta’kidlaydi[3].

Rus pedagog olimlari S. L. Rubinshteyn, L. S. Vygotskiy, V. V. Davydov, D. B. Elkonin, A. N. Leontyevlarning ilmiy qarashlarida fikrlash faoliyati shaxsning amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Xususan, V. V. Davydov nazariy fikrlashni rivojlantirishni ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatib, umumlashtirish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi[4].

O‘zbek pedagog olimlari ham ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, N. Sayidahmedov pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish orqali talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish mumkinligini asoslab beradi. A. Jalolov didaktik jarayonda interfaol metodlardan foydalanish talabaning kognitiv faolligini oshirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Sh. Sharipov mustaqil ta’limni tashkil etish va talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish muhimligini ilmiy jihatdan asoslab bergan[6].

O‘zbek olimlaridan B. Xodjayev pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi[7]. M. To‘xtaxo‘jayev esa ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish metodlari talabalarda tahliliy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ilmiy asoslab bergan[8]. Shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda o‘quv topshiriqlarining mazmuni ham muhim ahamiyatga ega. Muammoli vazifalar, amaliy mashg‘ulotlar va loyihaviy topshiriqlar talabalarning bilimni chuqurroq anglashiga va uni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashiga yordam beradi. Bu esa ularning o‘quv materialiga nisbatan ongli yondashuvini shakllantiradi. Talabalarning o‘z ustida ishlashi va mustaqil ta’lim faoliyati ham fikrlash jarayonining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mustaqil izlanish, qo‘shimcha manbalar bilan ishlash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalari talabaning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha olimlar mustaqil fikrlashni rivojlantirishni ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi. Ularning qarashlarida interfaol ta’lim, muammoli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika hamda kognitiv rivojlanish nazariyalari asosiy o‘rin tutadi. Bu esa oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga kompleks, ilmiy asoslangan yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Muhokama. Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi oliy ta’lim tizimining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Bu jarayon faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois mustaqil fikrlashni rivojlantirish ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur.

Talabalarning fikrlash faolligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va tanlangan metodlariga bog‘liq. An’anaviy ma’ruza shakllari bilim berishda muhim rol o‘ynasa-da, ular talabaning mustaqil tahlil qilish imkoniyatlarini to‘liq ochib bermasligi mumkin. Shu sababli o‘quv jarayonida talabaning faol ishtirokini ta’minlaydigan, uni izlanishga undaydigan topshiriqlar va vaziyatli mashg‘ulotlar ulushi ortib borishi lozim. Shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlash darajasi ularning motivatsiyasi va o‘quv jarayoniga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlanadi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalar muammolarni chuqurroq tahlil qiladi, muqobil yechimlarni izlaydi va o‘z nuqtai nazarini asoslashga harakat qiladi. Aksincha, faqat tashqi talablar asosida o‘qiydigan talabalarda fikrlashning yuzaki bo‘lishi kuzatiladi[7].

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mustaqil fikrlashni rivojlantirishda qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Raqamli ta’lim resurslari, elektron platformalar va interaktiv vositalar talabalarga o‘z bilimlarini mustaqil tekshirish, solishtirish va kengaytirish imkonini beradi. Biroq texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ularni faqat axborot manbai sifatida emas, balki tahlil va ijodiy faoliyat vositasi sifatida qo‘llash muhimdir. Shu bilan birga, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayonida individual yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish tezligi turlicha bo‘lgani uchun, pedagogik jarayon ham moslashuvchan va differensial bo‘lishi lozim. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda mavjud bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llash, dalillarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv natijasida talabalar tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni izlovchi va yaratuvchi subyektga aylanadi. Shu bilan birga, guruhli muhokamalar, debatlar va loyiha faoliyati talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, turli nuqtai nazarlarni solishtirish hamda ularga nisbatan obyektiv baho berish imkonini yaratadi.

Mustaqil fikrlashning rivojlanishi talabaning akademik muvaffaqiyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Fikrini erkin ifoda eta oladigan, axborotni tanqidiy baholaydigan va mustaqil qaror qabul qilishga qodir talabalar o‘quv faoliyatida yuqori natijalarga erishadi. Ular murakkab muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvni namoyon etib, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida zarur bo‘lgan kompetensiyalarni samarali egallaydi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, zamonaviy metod va vositalarni keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, refleksiv faoliyatni tashkil etish ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishning muhim omillaridan sanaladi. Talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, erishgan natijalarini baholashi va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashi uning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini mustahkamlaydi. Natijada talaba o‘quv jarayonida faol pozitsiyani egallab, uzluksiz ta’lim olishga tayyor shaxs sifatida shakllanadi. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur jarayonning samaradorligi innovatsion pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarining uyg‘un qo‘llanilishiga bog‘liq.

Tahlillar va natijalar. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga doir holatlar tahlil qilinganda,

ularning o‘quv faoliyatidagi yondashuvi va topshiriqlarni bajarish uslubi muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rindi. Talaba faqat tayyor ma’lumotni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, uni qayta ishlash va o‘z nuqtai nazarini shakllantirishga undalganda, fikrlash jarayoni ancha faollashadi.

Tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, muammoli va ijodiy yondashuv talab qiladigan topshiriqlar talabalarda mustaqil xulosa chiqarish, solishtirish va asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday vazifalarni bajarish jarayonida talabalar berilgan ma’lumotni tahlil qilishga, turli yechimlarni solishtirishga va eng maqbul variantni tanlashga o‘rganadilar.

Shuningdek, birgalikda bajariladigan o‘quv topshiriqlari ham fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Talabalar o‘z fikrini bayon qilish, boshqalarning qarashlarini tinglash va ularni baholash jarayonida o‘z fikrlash doirasini kengaytiradi hamda mantiqiy fikrlashga yaqinlashadi[6]. Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, mustaqil ishlashga ko‘proq e’tibor qaratilgan o‘quv jarayonida talabalar o‘z bilimini chuqurroq anglaydi, uni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga harakat qiladi va o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Bu esa ularning o‘quv materialini faqat yodlash emas, balki tushunish va qo‘llash darajasiga ko‘tarilishiga yordam beradi.

Xulosa. Oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishi, balki raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning asosiy sharti sifatida qaraladi. Chunki mustaqil fikrlay oladigan talaba o‘z bilimiga tayanib qaror qabul qiladi, murakkab vaziyatlarda yo‘l topa oladi hamda yangi g‘oyalarni ilgari surishga qodir bo‘ladi.

Talabaning fikrlash faoliyati uning o‘quv jarayonidagi ishtiroki, topshiriqlarga yondashuvi va bilimni qabul qilish uslubiga bevosita bog‘liq. Shu sababli ta’lim jarayonida faqat ma’lumot uzatish emas, balki uni anglash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim. Shuningdek, mustaqil fikrlashni shakllantirishda talabaning shaxsiy mas’uliyati ham muhim o‘rin tutadi. O‘z ustida ishlashga intilish, izlanish va o‘z fikrini asoslashga harakat qilish jarayonning samaradorligini oshiradi hamda bilimning barqaror o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u ta’lim mazmuni, o‘qitish usullari va talabaning faolligi uyg‘unligida yuqori natija beradi. Bunday yondashuv oliy ta’lim sifatini oshirish bilan birga, ijodkor va tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

References

1. Karimov A. A. Talabalarda mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. – Ilmiy xabarlar, 2022. – № 4. – 78–84-b.
2. Brookfield S. D. Developing Critical Thinkers in Higher Education. – Journal of Higher Education Research, USA, 2019. – Vol. 45, No. 2. – pp. 133–148.
3. Смирнов В. И. Формирование самостоятельного мышления студентов в цифровой образовательной среде. – Педагогика и психология образования, Россия, 2021. – № 3. – с. 52–67.
4. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2005. – 352 с.
5. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. – Москва: ИНТОР, 1996. – 544 с.
6. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 192 b.
7. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 368 b.
8. To‘xtaxo‘jayev M. Pedagogika (nazariya va amaliyot). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 312 b.

Organizing Didactic Games in Primary Education

Saparboeva Dilshoda Sobir kizi (PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor)[1]
dilshodasaparboyeva934gmail.com | ORCID: 0009-0005-4481-7631
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article examines the content, significance and methodological foundations of organizing didactic games in primary education. Didactic games are considered as an effective tool for enhancing students' cognitive activity, developing independent thinking, and facilitating the assimilation of educational material. The paper analyzes the types of didactic games, methods of their implementation in lessons, and the role of the teacher in this process. Particular attention is paid to the role of game-based educational technologies in developing students' motivation, creativity, and teamwork skills. The study is aimed at activating the educational and cognitive activities of primary school students and improving the quality of education.
Keywords: teacher, primary education, methodology, rule, innovation, primary school, didactic game, activity, concept, student, memory, observationg

Организация дидактических игр в начальных классах

Сапарбаева Дилшода Собир кизи (доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент)[1]
dilshodasaparboyeva934gmail.com | ORCID: 0009-0005-4481-7631
[1.] Ташкентский университет экономики и технологий
Ташкент, Узбекистан

Аннотация.
В данной статье раскрываются содержание, значение и методические основы организации дидактических игр в начальной школе. Дидактические игры рассматриваются как эффективное средство повышения познавательной активности учащихся, развития их самостоятельного мышления и облегчения усвоения учебного материала. В работе проанализированы виды дидактических игр, способы их применения в учебном процессе, а также роль учителя в организации игровой деятельности. Особое внимание уделено значению игровых образовательных технологий в формировании у учащихся мотивации, творческих способностей и навыков работы в коллективе. Исследование направлено на активизацию учебно-познавательной деятельности младших школьников и повышение качества образования.
Ключевые слова. учитель, начальное образование, методика, правило, инновация, начальная школа, дидактическая игра, активность, понятие, ученик, память, наблюдательность

Использование различных дидактических игр при организации каждого урока в начальных классах обеспечивает высокую эффективность образовательного процесса. Это обусловлено тем, что для детей 6–7 лет начало школьного обучения является сложным и переломным этапом жизни. Ребёнок вступает в новую социальную среду, становится частью коллектива, осваивает правила дисциплины и новый режим деятельности.

Несмотря на ранний возраст, на учащегося возлагается значительная учебная нагрузка: выполнение домашних заданий, усвоение учебного материала, развитие учебных навыков. Переход от игровой деятельности к систематическому обучению является важным этапом, сопровождающимся определёнными трудностями. Даже дети, посещавшие дошкольные учреждения, испытывают сложности адаптации, а для детей, пришедших из семейной среды, этот процесс становится ещё более сложным.

Особую трудность для младших школьников представляет необходимость длительного сосредоточения внимания в течение урока (40–45 минут), выполнение заданий и интенсивная умственная деятельность, что может приводить к быстрой утомляемости и снижению интереса к обучению. В связи с этим учителю необходимо организовать образовательный процесс таким образом, чтобы он был интересным и мотивирующим.

Формирование учебной мотивации не происходит спонтанно. Оно требует целенаправленной педагогической работы с учётом возрастных и психологических особенностей учащихся. В этом контексте дидактические игры и самостоятельные задания выступают важными средствами формирования устойчивого интереса к обучению. Использование педагогических технологий в начальном образовании способствует повышению вовлечённости учащихся в учебный процесс, активизации внимания и улучшению работы памяти. Мотивация, в свою очередь, обеспечивает более глубокое усвоение знаний.

Понятие «педагогическая технология» связано с развитием организационных и методических форм обучения.

Одной из первых форм обучения была индивидуальная форма, возникшая ещё в Древней Греции, где учитель непосредственно взаимодействовал с учеником, контролировал и направлял процесс обучения. В дальнейшем данная форма была заменена групповыми формами обучения. В средние века ведущими методами обучения стали заучивание, выполнение однотипных упражнений, устные опросы, а на более высоких уровнях — лекции и дискуссии.

Постепенно это привело к формированию классно-урочной системы и развитию современных педагогических технологий[6].

1. Педагогическое воздействие.

Педагогика не создаёт свои методы искусственно, а опирается на реальные факторы человеческого поведения. Она отбирает такие формы организации деятельности, которые соответствуют целям воспитания и обучения. Методы педагогического воздействия представляют собой систему средств, направленных на организацию социально значимой деятельности учащихся. Они способствуют формированию положительных форм поведения, развитию личности и превращению учебной деятельности в источник радости и творческого самовыражения.

2. Основные методы педагогического воздействия.

К основным методам относятся убеждение, требование, перспектива, поощрение и наказание, а также общественное мнение. Убеждение является ключевым методом, включающим три компонента: знания, чувства и поведение. Оно реализуется через понимание, эмоциональное переживание и принятие. Формами убеждения выступают лекция, беседа, дискуссия, рассказ, доказательство, демонстрация и личный пример.

Педагогическое требование отражает систему взаимоотношений между учителем и учащимися и регулирует нормы поведения. Метод перспективы предполагает постановку перед учащимися интересных и значимых целей, способствующих развитию целеустремлённости. Поощрение и наказание направлены на коррекцию поведения, стимулирование положительных поступков и предупреждение негативных. Общественное мнение выступает мощным воспитательным фактором, способствующим формированию социально значимой активности учащихся.

Эффективность применения данных методов возможна при условии гуманистического отношения педагога к личности учащегося.

3. Роль педагогического воздействия в образовательном процессе.

В условиях независимого развития Республики Узбекистан к личности предъявляются высокие требования, одновременно с этим обеспечивается уважительное отношение к учащемуся. Сочетание требовательности и уважения является важнейшим принципом педагогической деятельности.

В Концепции начального образования чётко определены цели и задачи обучения. Одной из ключевых задач является выявление и развитие скрытых возможностей учащихся, что способствует не только успешному усвоению учебного материала, но и формированию способности решать жизненные задачи. Это повышает интерес к обучению и формирует устойчивую учебную мотивацию.

В процессе внеклассного чтения эффективно используются такие инновационные методы, как SWOT-анализ, технология FSMU, «Чархпалак», «Светофор», «Снежинки», «Анализ понятий», которые способствуют развитию логического мышления учащихся. Важное место занимают беседы, направленные на анализ прочитанного, выделение основной идеи, установление причинно-следственных связей.

Также широко применяются игровые формы работы: литературные викторины, конкурсы, составление альбомов загадок, коллективное сочинение сказок, обсуждение пословиц и высказываний. Использование таких форм, как «Минутка юмора», «5 секунд на размышление», «Найди загадку», «Клуб знатоков», повышает интерес учащихся к учебной деятельности[1].

Заключение

Таким образом, использование инновационных педагогических технологий в образовательном процессе позволяет существенно повысить эффективность обучения по сравнению с традиционными методами. В центре образовательного процесса находится активная деятельность учащегося, его самостоятельность и индивидуальные особенности.

Инновационные подходы создают благоприятную образовательную среду, основанную на сотрудничестве, свободе самовыражения и уважении личности учащегося.

Применение дидактических игр, логических заданий, головоломок и наглядных материалов способствует формированию устойчивого интереса к обучению.

Для достижения ожидаемых результатов в рамках инновационных технологий необходимо учитывать индивидуальные потребности учащихся, их мотивацию и личностные особенности. Только при таком подходе возможно эффективное планирование и реализация образовательного процесса.

References

1. Norov I. K., Shirinova N. A., Yuldasheva S. S. Использование современных методов при анализе художественного произведения // Молодой исследователь: вызовы и перспективы. – 2020. – С. 124–126.
2. Sanober S., Aldawsari M., Karimovna A. D., Ofori I. Blockchain integrated with principal component analysis: A solution to smart security against cyber-attacks // Security and Communication Networks. – 2022.
3. Shukhratovich Y. S. Study of necronyms in the territory of Karakalpakstan // Gospodarka i Innowacje. – 2022. – № 21. – С. 101–104.
4. Abdurakhimova D. K. Prerequisites for the transition of traditional banks to digital banking // The Way of Science. – 2014. – № 23.
5. Азларова А. Перспективы развития цифровых банков в Узбекистане // Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10, № 5. – С. 22–30.
6. Tajimuratovna X. M., Menglibayevna B. S., Ataxanovna Y. G., Zaripbayevna S. A. Методы использования электронных средств при оценке и контроле знаний учащихся в общеобразовательных школах // Бошқарув ва этика қоидалари онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1, № 5. – С. 16–19.
7. Norov I., Yo‘ldoshev J., Yo‘ldoshev S. Организация урока на основе современных педагогических технологий // International Journal of Recently Scientific Researcher’s Theory. – 2023. – Т. 1, № 4. – С. 40–47.
8. Anvarovich N. E., Malik o‘g‘li S. S. Influence of financial inclusion through digital banking products on the economy of Uzbekistan // Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – Т. 2, № 4. – С. 32–37.

Contemporary Approaches to History Education: Challenges of Learning and Teaching

İntiqam Hilal oğlu Cəbrayılov (Doctor of Pedagogical Sciences, Professor)[1]
intiqamcebrayilov@gmail.com | ORCID: 0000-0003-2437-5926
[1.] Azerbaijan Institute of Education
Baku, Azerbaijan

Abstract.
